



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Noila Xolmurodova

Sharof Rashidov nomidagi SamDU
filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

**ANBAR OTIN HAYOTI VA IJODINI O'QITISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
(10-sinf adabiyot darsligi misolida)**

Annatotsiya: Maqlolada mumtoz adabiyot namoyondasi Anbar Otin ijodini bugungi kun o'quvchisiga o'qitishning innovatsion usullaridan, "O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish", "Muammoli ta'lism", "Yelpig'ich" kabi texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish o'quvchi dunyoqarashining shakllanishi, og'zaki nutqning rivojlanishi va ravon bo'lishida alohida ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: innovatsion usul, aql-idrok xaritasi, "O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish", "Muammoli ta'lism", "Yelpig'ich" texnologiyalari.

Bugungi kun ta'lim tizimida adabiyot darsliklarida mumtoz adabiyot namunalari salmoqli o'rinni egallaydi. Buning asosiy sababi o'quvchilarga ajdodlar merosini tanishtirish va shunga munosib ravishda avlod tayyorlashdir. Bilamizki, bizning ajdodlarimiz dunyoning yetuk shaxslaridan bo'lishgan. Ular orasida mumtoz



adabiyotimizning yetuk adibalari Zebunnisobegim, Jahon Otin Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno hamda Anbar Otin kabi adabiyot, san'at, ilm-fan borasida dunyoga tanilgan ijodkorlarning o'rni beqiyosdir. Maktabda "Adabiyot" fanini o'rganishning asosiy maqsadi – o'quvchilarda o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, badiiy matnni sharhlash, tahlil qilish va izohlash, o'zining matnini yaratishdir. Bunga esa o'qituvchining o'qitish metodlari, o'quvchilarни fanga mehrini oshirish orqali erishiladi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi." Har bir o'qituvchi o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishida barqaror va samarali natija beradigan, bilim faolligini rag'batlantiradigan faoliyatning maqbul usullarini izlaydi. Ushbu vazifani bajarish uchun maktab darsligidan foydalangan holda 10-sinf o'quvchilariga Anbar Otin ijodini o'qitishda "O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish", "Muammoli ta'lim" texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berildi.

"O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" texnologiyasining tuzilishi quyidagicha:

I bosqich – chaqiruv (evocation): mavjud bilimlarni faollashtirish, yangi ma'lumotlarni olishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otish, o'quvchining o'z o'quv maqsadlarini belgilashi;

II bosqich – mazmun-mohiyatini tushunish (realization of meaning): yangi ma'lumotlarni olish, o'quvchining o'quv maqsadlariga o'zgartirishlar kiritish;

III bosqich – ifodalash (reflection): yangi bilimlarning tug'ilishi, o'quvchi tomonidan yangi o'quv maqsadlarini belgilanishi.

Texnologiyani qo'llashda birinchi navbatda Anbar Otinning hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha dars modeli yaratiladi. Yillik ish rejada 3-chorakda 10-sinf o'quvchilar uchun uch soatlik dars ajratilgan.

Darsdagi yetakchi usullar – suhbat, ifodali o'qish, notanish so'zlar lug'ati bilan ishslash, shaxsiy tajribaga murojaat qilish, asar nomlanishi orqali bashorat qilish, "bashorat daraxti", matn bilan tadqiqot ishlari.



Birinchi dars mavzusi: “Anbar Otin. “Risolayi falsafayi siyohon”: Muallif hayoti va faoliyati. Asarning yozilish tarixi”. O‘quvchilar Anbar Otin biografiyasи, shoira dunyoqarashining shakllanishida ustozi Dilshodi Barno, Uvaysiy, Alisher Navoiy hamda Haziniylarning ijodi va asarlari alohida o‘rin tutgani haqidagi ba’zi bir faktlar bilan tanishadilar.

Chaqiruv bosqichida asarni idrok etishga o‘quvchilarni tayyorlash uchun yordam beradigan shaxsiy tajribaga murojaat qilinadi:

Boshqa davlatlarda ayollar o‘zlariga siyosiy huquqlar berilishini talab qilib chiqayotgan bir paytda Turkiston ayollari nega aksar hollarda siyosiy va ijtimoiy hayotdan chetda edilar?

Sizningcha, zamonaviy “Qarolar falsafasi”da nimalar yozilishi kerak? Bugungi kun “Qaro”lari kimlar?

Falsafiy-publisistik asar deganda qanday asarni tushunasiz?

Notanish asar sujetini bashorat qilish o‘qishga qiziqishni oshiradi – matn bilan tanishish jarayonida o‘quvchilar o‘z taxminlarining to‘g‘riligi yoki noto‘g‘riligiga amin bo‘lishadi.

O‘qituvchi muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. “Muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda o‘quvchilarning intellektual xususiyatlari, o‘z xatti-harakatini qo‘yilgan maqsad sari yo‘naltira olish, aqliy faoliyatini ongli ravishda boshqarish bilan bog‘liq individual sifatlari yuzaga chiqadi.” Shunday ekan, ushbu texnika o‘quvchilar e’tiborini muallif talqinining aks-ifodasi bo‘lgan asar nomiga qaratadi.

Mazmun-mohiyatini tushunish bosqichida “Qarolar falsafasi” kitobi haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tiladi. O‘quvchilarni asarni o‘qishga qiziqtirish uchun asar mazmunini hayotiy misollar yordamida yoritadi.

Ifodalash bosqichida o‘quvchilarda ko‘nikma hosil qilish maqsadida o‘qituvchi tomonidan ajratib berilgan tushunarsiz so‘zlardan foydalanib, gaplar tuzish topshirig‘i beriladi:

Mazbut – zabit etilgan

Huvaydo – belgili, oshkora

Zohir – yuzaki, tashqi



Botin – ichki

Madfun – ko‘milgan

Murcha – chumoli

Shunday qilib, “O‘qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish” texnologiyasidan foydalangan holda “Anbar Otin. “Risolayi falsafayi siyohon”: Muallif hayoti va faoliyati. Asarning yozilish tarixi” mavzusini o‘quvchilarga tushuntirib beriladi. Ushbu pedagogik texnologiyaning xususiyati shundaki, o‘quv jarayonida o‘quvchi haqiqiy va aniq maqsadlarga asoslanib, o‘zi ushbu jarayonni quradi, u o‘zining rivojlanish yo‘nalishlarini kuzatib boradi va yakuniy natijani belgilaydi. O‘quvchilar faol ijodiy faoliyat natijasida bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, dialoglar quradilar va mustaqil ravishda bilimlarga ega bo‘ladilar.

Mumtoz asarlar matni bilan ishlash o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham mashaqqatli mehnat talab etadi. Shunday holatlar bo‘ladiki, dars jarayonida ko‘plab o‘rinli-o‘rinsiz usul va metodlar qo‘llaniladi. Natijada, asar badiiyati, jozibasi xira tortib qoladi, o‘quvchiga ta’sir kuchi kamayadi. Adabiyot darslarida so‘z sehriga tayanish lozim, foydalanadigan usullar umumiylashtirishga omuxta bo‘lib, singib ketsagina uni qo‘llash yaxshi samara berishi mumkin.

“Anbar Otin. Risolayi falsafayi siyohon” asari matni bilan ishlash ham bilim-ko‘nikma, sabr-toqat talab etadi. O‘quvchilarga bu mavzuni o‘tishda “Yelpig‘ich” texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Yelpig‘ich” texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, unda mavzuning turli qirralari bo‘yicha axborot berish mumkin. Ayniqsa, o‘quvchilarga o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma yoki og‘zaki shaklda ixcham bayon etish va uni himoya qilish imkonini beradi. Yuqoridaqgi texnologiyalarga diqqat qaratilsa, o‘qituvchining asosiy e’tibori o‘quvchilarni darsning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilganligining guvohi bo‘ladi.

Bu texnologiyaning beshta turi mavjud.

O‘rganishning birinchi turida jadval asosida yaxshi va yomon xulqlarni ajratib chiqishadi.



Yaxshi xulqlar Yomon xulqlar

2-tur darslikda berilgan parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar va ularning izohi ustida ishlash.

g‘izo – ovqat

rasamat – ulush

shona – taroq

xilm – kasallik

davvor –

aylanuvchi mazbut –

zabt etilgan

huvaydo –

belgili, oshkora

zohir – yuzaki,

tashqi

botin – ichki

madfun –

ko‘milgan

murcha –

chumoli lakotlik –

sustlik

vajh – sabab

tadorik –

chora, iloj

musallat –

g‘olib bo‘luvchi

3-turda berilgan so‘zlarning ma’nodoshi topiladi.

vajh – sabab, asos, negiz

tadorik – chora, iloj, to‘g‘rilash, tuzatish, to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, hozirlik, tayyorgarlik



g‘izo – ovqat, oziq, taom, yegulik, yemish

rasamat – ulush, bo‘lak, hissa, qism

4-turda berilgan parcha yuzasidan o‘quvchilarning fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashiladi. O‘qituvchi tomonidan asar bo‘yicha alohida muammoli savollar o‘rtaga tashlanadi:

1. Shoira asarni yozishdan maqsadini qanday ifodalaydi?
2. “Anbar” so‘zi qanday ma’noni anglatadi? Muallif asarni yozishdan maqsadini o‘z ismiga qanday bog‘laydi?
3. Muallif shu o‘rinda mashhur shaxslar nomlarini nima maqsadda keltiradi?
4. Muallif onaning qanday sifatlarini keltirmoqda?
5. Muallif nega avvalgi adabiyot namunalarida yaratilgan ayollar obrazi tasviriga qarshi chiqmoqda?
6. Shoira bugungi hayotimizga daxldor haqiqatlarni bashorat qilishda qanday intuitsiyalarga (sezgilarga) suyangan deb o‘ylaysiz?

5-turda asar matnidan o‘quvchilar soniga qarab tasdiq savollari beriladi. Javoblarning barchasi “Ha” yoki “Yo‘q” so‘zlaridan iborat bo‘ladi.

1. Muallif onaning sifatlarini sanab o‘tib, uni farqi qarolar jumlasidan deydi.
- Ha (yo‘q).
2. “Farqi qarolarni, qaro soch, qaro ko‘z, qaro xol va lola yuz, la’ldek lab, sadafdek tish va hokazolar ila tasvir etgonda, ularda o‘z husni jamollarig‘a yaroshgon aql, farosat, himmat va g‘ayrat, xizmat va mehnatlari ham bordurki, ul fazilatlar ila birga yodlamoq lozimdur”, - deya ta’riflaydi.
3. O‘g‘rilar va qaroqchilar borligi sababdan qiz-juvonlar ko‘chaga yasanib chiqmoqlari man etilgan.
- Yo‘q (ha)

Topshiriqlar bajarilgach, o‘quvchilarning fikrlari birgalikda tahlil qilinib, texnologiyalar orqali yechilishi lozim bo‘lgan muammolar hal etiladi.



Xulosa qilib aytganda, mumtoz matnlar ustida ishslashda o‘quvchilar tushunishi oson bo‘lgan yo‘llarni tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. O‘quvchilarni adabiyot darslariga qiziqtirish, o‘rganilayotgan asarni to‘liq o‘qishga undash yuqoridagi texnologiyalarning yutug‘i hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarning kelgusida mumtoz asarlar bilan ishslashida qiyinchilikni tug‘dirmaydi. Adabiyot darslarida yangi, samarali texnologiyalardan foydalanish o‘tilayotgan mavzuni o‘zlashtirishda g‘oyat muhim didaktik vazifani bajaradi. Badiiy adabiyotning so‘z san’ati sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini o‘quvchilar teran idrok etishlariga erishish “O‘qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish”, “Muammoli ta’lim”, “Yelpig‘ich” texnologiyalaridan unumli foydalanish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi shuningdek, hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan soha xodimlariga yo‘llagan tabrigi. Sayt: Aniq.uz. 2020.
2. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/mirziyov-maktabda-uqitish-metodikasi-uzgarmasa-talim-sifati-ham-mazmuni-ham-muhit-ham-uzgarmaydi>
3. Norqo‘ziyeva Z. A’zam O‘ktam ijodini o‘qitishning innovatsion usullari // A’zam O‘ktam ijodi badiiyati\konfresiya. Andijon. 2020.
4. Adabiyot [Matn]: 10-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 312 b.
5. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muamoli ta’lim. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2022. 402 b.
6. Otayeva M. Mumtoz asarlar matni ustida ishslash. // Til va adabiyot ta’limi. 2021. 8-son, 10-11-betlar.